



YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 156 (945), 2023-yil 8-avgust, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



BUNYODKORLIK LOYIHALARI HAQIDA AXBOROT BERILDI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Toshkent shahridagi bunyodkorlik loyihalarining borishi haqida axborot berildi.

So'nggi yillarda poytaxtimiz ulkan bunyodkorlik maydoniga aylandi. Ko'plab turar joylar, ishlabarmonlik markazlari, korxonalar, xiyobonlar barpo etildi. Endi urbanizatsiya jarayonlarida uzoqni o'ylab, qurilishlar shahar tashqarisida amalga oshirilmoqda.

Ulardan eng muhimlari — Olimpiya shaharchasi va Yangi Toshkent loyihalaridir.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili 9-noyabr kuni Olimpiya shaharchasi qurilishiga tamal toshi qo'ygan edi. Uning maydoni 100 gektar bo'lib, 10 ming o'rinni yengil atletika va futbol stadioni, 6 ta yopiq va 7 ta ochiq sport inshootlari, suv sporti saroyi, velotrek, yakkakurash, jamoaviy sport majmualari barpo etiladi. Bu yerda 2025-yilda Yoshlar o'rtasidagi Osiyo va Paraosiy o'yinlari o'tkaziladi.

Loyiha dunyoning 70 ta mamlakatida sport inshootlari qurgan Xitoyning "CAMC Engineering" kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Qurilishga mingdan ziyod ishchi va muhandislar, ilg'or texnikalar jalb qilingan. Hozirgi kunga qadar 7 ta asosiy binoning yer osti ishlari to'liq bajarilgan. Navbatdagi bosqichlar jadallik bilan davom ettirilmoqda.

Ushbu hudud yaqinida yana bir shahar — Yangi Toshkent qurilishi rejalashtirilgan. Prezidentimiz joriy yil 18-mart kuni unga tamal toshi qo'ygan edi.

Loyihaning birinchi bosqichida 60 ming aholiga mo'ljallangan ko'p qavatli uylar, davlat idoralari uchun ma'muriy binolar, bog'lar, ijtimoiy va iqtisodiy obyektlar barpo etiladi.

Taqdimotda shu boradagi dastlabki ishlar haqida axborot berildi. Bugungi kunda shaharni loyihalashtirish va qurilishni muvofiqlashtirish uchun direksiya tuzilgan. Hudud chegaralari tasdiqlanib, Kadastr agentligi bilan inventarizatsiya qilingan. Infratuzilma va me'moriy yechimlarning turli bosqichlari bo'yicha Singapur, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Turkiya kompaniyalari va mahalliy tadbirkorlar bilan shartnomalar tuzilgan.

Xususan, Singapurning "Meinhardt group" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan loyihada ijtimoiy soha obyektlari joylashuvi, transport tarmoqlari va ularni poytaxtimiz bilan bog'lovchi yo'larga alohida e'tibor qaratilgan.

Taqdimotda, shuningdek, Islom sivilizatsiya markazining ichki me'moriy qiyofasi haqida ham ma'lumot berildi. Markazdan o'rinda oladigan muzeyda mutafakkir bobolarimizning ilmiy merosi, ular yashagan davr muhiti aks ettiriladi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni o'z vaqtida, sifatli barpo etish bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

YUKSALISH PALLASI

TARIXNING YANGI SAHIFASINI YARATAYOTGAN XALQ

"Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug'lashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etdik va bu borada katta o'zgarishlarni boshladik! Yagona maqsadimiz — adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilishdan iborat!". 2016-yili Prezidentlik vazifasini bajarishga kirishgan Shavkat Mirziyoyev faoliyatining ilk kunlaridanoq boshlagan tub o'zgarishlar asosiga ana shunday buyuk g'oyani qo'ydi va uni jamiyatimiz hayotiga izchillik bilan joriy etib kelmoqda.

Davomi 3-betda



DAXLDORLIK

YANGI O'ZBEKISTON G'OYASI RO'YOBI Uchinchi Renessans poydevori kafolatidir

Joriy yil mamlakatimizda o'tkazilgan ikki muhim siyosiy tadbir — yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni qabul qilish uchun o'tkazilgan umumxalq referendumini hamda Prezident saylovi juda ko'p masalalarga aniqlik kiritdi. Xususan, xalqimiz endi har jihatdan, ayniqsa, ong-tafakkuri o'zgarishlar tarzida siyosiy hayotga faol aralashib, o'z yetakchisini xolisona tanlash, uning atrofida jipslashuvi yangi O'zbekistonning, pirovardida, Uchinchi Renessansning poydevori qurilishini kafolatlashini tushunib yetdi. Bu juda katta o'zgarish, o'tkazilayotgan siyosiy islohotlar va yangilanishlar samarasidir.



Prezidentimizning lavozimiga kirishish oldidan tantanali marosimdagi nutqi yangi O'zbekiston sharoitida davlatchilikni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy rivojlantirish konsepsiyasi mazmun-mohiyatini yakqol aks ettirdi. Mamlakat rahbari ijtimoiy davlatchilik yo'lidan borish konsepsiyasini ilgari surar ekan, bu yo'l, bu tizimni yaratish o'ta murakkab jarayon ekaniga e'tibor qaratdi. Albatta, asrlar davomida katta umidvorlik bilan shu kunlarga yetib kelgan xalqqa munosib turmush sharoitini yaratish oson kechmaydi. Shu bois, Prezidentimiz faoliyatining ilk kunlaridanoq ijtimoiy davlat mezonlarini hayotga tatbiq etar ekan, ulug' maqsadlarni amalga oshirishda ijtimoiy ongning yuksalishiga, aholining intellektual salohiyatiga, yoshlarning tashabbuskorligiga suyanish lozimligini ta'kidlab keladi.

Davomi 5-betda

MUNOSABAT

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASI

barqaror taraqqiyotni ta'minlash uchun noyob imkoniyat

O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qo'shnilar bilan do'stona aloqalarni har tomonlama mustahkamlash va Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish yo'lida katta o'zgarishlarga asos soldi. Bu borada Prezidentimiz tashabbuslari oliy darajada qo'llab-quvvatlangani holda, o'tgan qisqa davrda Markaziy Osiyoda siyosiy muhit sezilarli darajada yaxshilanib, chinakam yaxshi qo'shinchilik va o'zaro ishonch ruhi shakllandi. Mintaqada ikki va ko'p tomonlama hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi.

Davomi 2-betda

OCHIQ MULOQOT OLDIDAN

YIRIK INVESTITSION LOYIHALAR

TOSHKENT VILOYATINING HAR BIR TUMANIGA KIRIB BORADI

Yurtimizda aholi bandligini ta'minlash, bo'sh ish o'rnlari yaratish, har bir kishining munosib ishli bo'lishiga ko'maklashish doimiy tarzda kun tartibiga chiqayotgani bejiz emas. Boisi, xalq farovon, oilalar tinch-totuv yashashining asosi ham, kambag'allikni qisqartirish-u, mahallalarda jinoyatchilik va boshqa salbiy holatlar oldini olishning muhim shartlaridan biri ham odamlarni ish bilan ta'minlash, doimiy daromadga ega bo'lishiga ko'maklashishdan iborat.

Davomi 2-betda



AGRAR TARMOQ



SUV TANQISLIGI uning xavf oqibatlarini qanday yumshatish mumkin?

1-avgustdan Qashqadaryo va Surxondaryo, 20-avgustdan boshlab esa Toshkent viloyatida suv uchun tariflar oshirilishiga doir xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo'ldi. E'tiborli jihati, bunga e'tirozli fikrlar bilan bir qatorda, narxlar oshishi bozor talablariga moslashuv, ayniqsa, suv tanqisligi muammosi tobora kuchayib borayotgan ayni vaziyatda ushbu ne'matni asrash, isrofgarchilikning oldini olishning samarali usuli o'laroq bugungi kun zarurati ekaniga oid qarashlar ham ko'p bo'ldi.

Davomi 4-betda

TAJRIBA

SHOLIDAN IKKI MARTA HOSIL OLIH O'zbekistonda yangi texnologiya yo'lga qo'yildi

Yaqinda erta tongdan vodi viloyatlarining qishloq xo'jaligi boshqarmalari boshliqlari, yetakchi sholikor fermerlar, dehqonlar, olim-u o'qituvchilar Andijon viloyati Izboskan tumanida yig'ildi. Ular shu kuni yurtimizda ilk bor mexanizatsiya yordamida ekilgan sholi ko'chatlarining birinchi hosilini o'rib olish jarayoniga guvoh bo'lishdi. Aprel oyida tajriba sifatida ekilgan o'rtapishar, serhosil "Iskandar" navli sholi ko'chatlari yozning qoq o'rtasi — 27-iyulda pishib yetilgani-yu, uning ketidan ikkinchi hosil uchun yana ertapishar sholi navi ko'chatlari yerga qadalgani chin ma'noda tarixiy voqea bo'ldi.

Bu sholi ekinidan yilda bir necha marotaba hosil olishni maqsad qilgan Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlarining doimiy izlanishlari va yangi tajribalari mahsuli, desak mubolag'a

emas. Tadqiqotchilar bu borada Janubiy Koreyaning KOPIA markazi mutaxassislari bilan hamkorlikda ish olib bordi.

Davomi 4-betda

YUKSALISH PALLASI

TARIXNING YANGI SAHIFASINI YARATAYOTGAN XALQ



Odil OLIMJONOV, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari ilk Saylovdi dasturi va xalq bilan bo'lgan bevosita uchrashuvlarda aholi bildirgan takliflar asosida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqdi. Tan olish kerakki, bu strategiyada belgilangan chora-tadbirlar oshig'i bilan bajarildi. Mazkur hujjatda ko'zda tutilgan vazifalar bajarilishi naikni yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, balki bizning dunyoqarashimizni ham butunlay o'zgartirib yubordi.

Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning amaliy natijalari yangi O'zbekiston, jumladan, Uchinchi Rennessans poydevorini yaratish hamda inson qadr-qimmatini ko'tarish yo'lida tashlangan ulkan qadam bo'ldi.

Xalq qabulxonalari inson qadr-qimmatini oshirishga katta hissa qo'shdi

Ha, haqiqatan ham shunday. Biz 2016-yilgacha bo'lgan davrda kichik bir masalani hal etish uchun turli idoralar eshigida uzoq vaqt sarson bo'ladik, amaldorlar esa qadr-qimmatimizni bir pulga olmasdi. Tan olish kerakki, Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur muammoni o'ta original va o'ziga xos usul bilan hal etdi.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri virtual qabulxonasi, keyinroq Prezident Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Prezident va boshqa rahbarlar hududlarda xalq bilan ochiq muloqotlar o'tkaza boshladi. Bular xalqimiz ongi va ruhini keskin o'zgartirdi. Negaki, virtual va Xalq qabulxonalari orqali hamda jonli uchrashuvlarda fuqarolar shu paytgacha hal bo'lmayotgan muammolarini davlat rahbariga to'g'ridan-to'g'ri yetkaza boshladi. Pirovardida esa, ular tezda hal etila boshlandi.

Bu tadbirlar hamyurtlarimizning adolatga nisbatan qariyb yo'qolayotgan ishonchi qayta tiklanishi uchun muhim vosita bo'ldi. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, bu borada bizning asosiy maqsadimiz — Xalq qabulxonalari qilingan hech bir murojaat e'tiborsiz qolmaydigan tizim yaratishdan iborat bo'ldi.



Rahbarlarning xalq oldidagi mas'uliyati keskin oshdi. Ular faoliyati odamlar tashvishini qay darajada hal qilishiga bog'liq bo'lgan muhit yaratildi. Hamma idora va tashkilotlarda "Fuqarolar qabulxonasi" tashkil etildi.

Davlat xizmatlari agentligi tuzildi va bu yo'l bilan bitta hujjat olish uchun aholining qator idoralarda sarson bo'lib yurishdek bema'ni holatga barham berildi. 10-15 ta idoradan bir necha oy mobaynida ovora bo'lib yig'adigan hujjatlarimizni shu bitta tashkilotdan oladigan bo'ldik.

Odamlar arziyi aytgani idoralarga emas, amaldorlar aholi dardini eshitish uchun ular oldiga boradigan bo'ldi. Bu ham rahbarlar va xalq o'ngini keskin o'zgartirdi. Amal egalari aslida xalqning xizmatkori bo'lishi, aholi rozi qilish uchun ishlashi kerakligini tushuna boshladi.

Yaxshi qo'shnichilik munosabatlari qayta tiklandi

Prezident Shavkat Mirziyoyev sobiq sho'rolar davrida boshlanib, 2016-yilgacha hukm surgan "yopiq jamiyat" siyosatini bekor qildi va mamlakatimizni dunyoga, dunyoni esa bizga ochib berdi. Jumladan, 1992-2016-yillar mobaynida Markaziy Osiyoning beshta qo'shni davlati bir-biridan uzoqlashishi ularning barchasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimiga kelgandan keyin hamma davlatlar, ayniqsa, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni tubdan kengaytirish yo'lini boshladi. O'zbekistonning ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, ichki va xalqaro transport kommunikatsiyalari va sudvan samarali foydalanish, davlat chegaralaridan o'tishni soddalashtirish kabi uzoq yillardan buyon yechimini kutayotgan murakkab muammolar hal etildi.

Iqtisodiy aloqalar kuchayishi natijasida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik darajasi shiddatli ravishda o'sa boshladi. 2023-yilning yarim yilida bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 2,3 foizga o'sib, 3,5 milliard dollarga yetdi va O'zbekiston jami tashqi savdosining qariyb 12 foizini tashkil etdi. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarning qayta tiklanishi qo'shni mamlakatlar iqtisodiyoti rivojiga muhim hissa qo'sha boshladi.

Chegaralardan o'tishdagi sun'iy to'siqlar asrlar davomida qo'shni bo'lib yashagan xalqlarning qarindosh-urug'lik rishtalariga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatardi. Masalan, farzand ota-onasining janozasiga borolmagan — chegaradan o'tkazilmagan voqealar oddiy hol bo'lgan. Bunday no-xush holatlar, bu tartibni o'ylab topgan rahbarlardan xalq qattiq norozi edi.

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarning qayta tiklanishi ana shunday salbiy holatlarni butkul bartaraf etdi. Chegaradan ortiqcha qiyinchilik va sun'iy to'siqlarsiz o'tayotgan odamlar esa davlatimiz rahbarini duo qilmoqda!

Tadbirkorlik tafakkuri qayta uyg'otildi

Sovet zamonidan boshlab to 2016-yilgacha bo'lgan davrda yurtimizda xalqning boyib ketishiga qarshi kurashildi. U paytlarda bilim, aqli va mehnatining miqdori hamda sifatidan qat'i nazar, inson boyishi mumkin emasdi. Bu qoidaga rioya qilmaganlar ayovsiz jazolanardi. Sho'rolar ota-bobolarimizning tadbirkorlik tafakkuri va salohiyatini yo'q qildi, boylarimizning bor mulkini tortib olib, o'zlarini jismonan mahv etdi yoki uzoq o'lkalarga surgun qildi. Xullas, asrlar davomida tadbirkorlik darajasi yuksaligi bilan olamni hayratga solib kelgan xalqimiz sho'rolar davrida bu xislatini yo'qotdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy rivojlanishga to'siq bo'lgan bunday nojoiz holatni ham tubdan o'zgartirdi. U "Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy bo'ladi", degan shiori olg'a surdi. Tan olish kerakki, davlatimiz rahbari tomonidan mazkur g'oyani oldinga surish ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda inqilobiy xarakterga ega bo'ldi. Yurtimizda tadbirkorlikni keng rivojlantirish va ular huquqini himoya qilishning butunlay yangi va zamonaviy



talablarga javob beradigan mexanizmi yaratildi. Yangi qonunlar va tartiblar ishlab chiqildi, mavjudlarga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Tadbirkorlikni boshlash uchun ruxsatnoma olish tizimi soddalashtirildi, uning ko'p turiga litsenziya olish umuman bekor qilindi. Tadbirkorlik subyektlarini rejadan tashqari tekshirishlarning barcha turiga barham berildi. Davlatimiz rahbari vazirlik va hokimliklar ish vaqtining kamida 50 foizi tadbirkorlar muammolarini o'rganish va ularga yordam berishga sarflanishi lozimligi, rahbarlar faoliyatini baholashda tadbirkorlikni rivojlantirish holatiga alohida e'tibor berilishini davlat siyosati darajasiga chiqarishi juda katta ahamiyat kasb etdi.

Xullas, yurtimizda 2016-yildan boshlangan yangi iqtisodiy siyosat tufayli yuz minglab aho-



“ KEYINGI OLT YILDA IJTIMOY YORDAM KO'LAMI 5 BAROBAR OSHDI VA 2 MILLIONDAN ORTIQ OILANI QAMRAB OLDI. BU MAQSADLARGA BYUDJETDAN 2016-YILI 2,2 TRILLION SO'M AJRATILGAN BO'LSA, BUGUN BU MABLAG' 18 TRILLION SO'MGA YETKAZILDI. IJTIMOY TA'MINOTGA YO'NALTIRILGAN MABLAG'LARNING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI 2016-YILDAGI 0,9 FOIZDAN 2022-YILI 2, 2 FOIZGA YOKI 2,5 BAROBAR KO'PAYDI.

li tadbirkorga aylandi va ularning soni tobora kengaymoqda. Birgina 2023-yilning birinchi yarim yilida yuz mingga yaqin tadbirkorlik subyekti ro'yxatdan o'tdi. Bu esa xalq turmush farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishga ulkan hissa qo'shmoqda. Eng muhimi, 1917-2016-yillar mobaynida xalqimizning qariyb yo'qolib ketayotgan tadbirkorlik tafakkuri va salohiyati yana qaytadan tiklana boshladi, ular el ichida yana qadr-qimmat topadi.

Ijtimoiy himoya va kambag'allikka qarshi kurash

Avvallari ijtimoiy himoya sohasida juda katta kamchiliklar mavjud bo'lib, moddiy yordam haqiqiy kambag'al chetda qolib, tanish-bilish orqali o'ziga to'q oilalarga berilish holatlari ham uchrardi. Prezident Shavkat Mirziyoyev aholining ehtiyojmand qatlamlarini himoya qilishni davlatning eng muhim ijtimoiy funksiyalaridan biriga aylantirdi. Natijada Harakatlar strategiyasi doirasida pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksalar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishning butunlay yangi tizimi yaratildi.

Tegishli idoralar vakillari mahallama-mahalla, xonadonma-xonadon yurib, vaziyatni joyida o'rganib, kam ta'minlangan, ishsiz, kambag'al oilalar, ayollar, yoshlar ro'yxatini tuzdi va ular uchun mos ravishda alohida "Temir daftar", "Ayollar daftar" va "Yoshlar daftar" yaratildi. Mana shu daftarlarga kiritilgan fuqarolarning, avvalo, tadbirkorlik salohiyatini aniqlash, keyin ularga mos shart-sharoitlar yaratish, qo'llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqildi, "start kapitali" berildi.

Keyingi olti yilda ijtimoiy yordam ko'lami 5 barobar oshdi va 2 milliondan ortiq oilani qamrab oldi. Bu maqsadlarga byudjetdan 2016-yili 2,2 trillion so'm ajratilgan bo'lsa, bugun bu mablag' 18 trillion so'mga yetkazildi. Ijtimoiy ta'minotga yo'naltirilgan mablag'larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2016-yildagi 0,9 foizdan 2022-yili 2, 2 foizga yoki 2,5 barobar ko'paydi.

Tizim yanada takomillashtirilmoganda. Jumladan, yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. U shu kunga qadar 6 ta vazirlik va idorada tarqoq holda faoliyat ko'rsatgan ijtimoiy xizmatlarni yagona tashkilotda birlashtirdi.

Ijtimoiy himoya haqida gapirganda, kambag'allik masalasini chetlab o'tish mumkin emas. O'zbekistonda kambag'allikka qarshi fahq kurash 2020-yilda boshlandi. 2021-yildan buyon kam ta'minlanganlarni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimiga kiritish orqali ularni hisobga olish mexanizmi joriy etildi. 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugungi kunda ijtimoiy himoya reyestrida kam ta'minlangan 2,3 million oila, ayollar, yolg'iz qariyalar va nogironligi bo'lgan shaxslar moddiy yordam bilan qamrab olingan. Ajratilgan mablag' hajmi 7 barobar oshib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi.

2022-yildan boshlab esa O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurashish umumiy tus oldi, "mahallabay" tizimi yaratildi. 2022-yil 1-yanvardan har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va

kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi lavozimini ta'sis etildi. Unga ehtiyojmand oilalar hisobini yuritish hamda kasb egallashda, o'z ishini ochishda, kredit va subsidiyalari olishda oddiy odamlarga ko'maklashish vazifasi topshirildi.

Kambag'allikni qisqartirish borasida sezilarli natijalarga erishilmoganda, kambag'allar soni qisqarmoqda. 2022-yilda 1 million aholi kambag'allikdan chiqarildi, joriy yil bu raqam yanada o'zgarishi kutilmoqda.

Bunday natijalar xorijiy ekspertlar tomonidan tan olinmoganda. Jumladan, 2023-yil 18-may kuni Toshkentda o'tkazilgan "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or tajribalarni taqib etish" il xalqaro forumida qatnashgan iqtisod sohasida Nobel mukofoti sovrindori Abxijit Banerji mamlakatimiz o'z namunasini bilan boshqa mamlakatlarga kambag'allikka qarshi qanday kurashish kerakligini ko'rsatayotganini e'tirof etdi.

Arzon va sifatli uy bilan ta'minlash sohasida inqilobiy o'zgarishlar amalga oshirildi

2016-yilgacha bo'lgan davrda o'z holiga tashlab qo'yilgan masalalardan biri aholini uy-joy bilan ta'minlash edi. Davlatning bu masalaga e'tibori kamligi tufayli o'z uyiga ega bo'lmagan va uy olishni orzu ham qilmay qo'yg'an yuz minglab odamlar qatlami paydo bo'ldi. Bu juda katta va jiddiy muammoga aylangan edi.

Shavkat Mirziyoyev bu ishda ham inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. U hokimiyat tepasiga kelgan zahoti zudlik bilan uysiz qolgan aholi uchun arzon va sifatli uy-joy qurishni boshlab yubordi. Uy qurishga materiallar ishlab chiqaradigan barcha vazirlik va idoralarni bu ishga safarbar qildi va ularga ularning narxi arzon bo'lishi uchun juda katta imtiyozlar berdi.

Natijada o'tgan 6 yilda qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joy qurildi. 2023-yili yanada ko'p, ya'ni 90 ming oilani uy-joy bilan ta'minlash reja qilingan. Kelgusi 7 yilda esa 1 million xonadonli uy-joylar qurish rejalashtirilgan va bunga jami 15 milliard dollar yo'naltiriladi.

Hajda ham inson qadri baland bo'ldi

Yurtimizda 2016-yildan boshlangan yangi davrda hayotimizning barcha jabhalari qatori Haj marosimini tashkil qilish tizimida ham keskin sifat o'zgarishlari yuz berdi. Saudiya Arabistonining Haj amallari bajarish hududlaridagi sharoitlar tubdan yaxshilandi, Hajga jo'natish kvotalari uch barobar oshirildi va 2023-yilda 15 mingga yetkazildi. Shunday imkoniyat tufayli men ham 2023-yil muqaddas Haj ziyoratini ado etish baxtiga musharraf bo'ldim.

Davlatimiz rahbarining yurtimizda inson qadri hamma narsadan aziz turishi kerakligi to'g'risidagi fikrlari hayotga qanchalik tatbiq etilayotganini Haj marosimida o'z ko'zim bilan ko'rdim. Hajning barcha amallari bajarishga hamisha avtobuslarda olib borildi. Mino, Arafot, Muzdalifa kabi barcha hududlarda avtobuslar xizmatimizga shay turdi. Biz transport qidirishga vaqt va qo'shimcha mablag' sarflaganimiz yo'q. Bu Haj amallarini bajarishda o'ta muhim omil bo'ldi. Chunki qattiq va quruq

issiq haroratda ko'chada taksi ushlab ortiqcha tashvish, ko'p vaqt va xarajatlarga sabab bo'lardi. Madina va Makka shaharlarida hashamatli, hamma qulayliklarga ega mehmonxonalarda yashadik. Haj amallari Mino vodiysida, Arafot, Muzdalifa, Jamorot hududlarida, ya'ni ochiq maydonlarda bajariladi. U yillarda chodirlarda yashadik. Yashash joylarimizda har bir kishi uchun toza matodan tayyorlangan oppoq choyshablar solingan yumshoq yotish o'rnlari bor. Sovitkichlar 24 soat chodirlarni sovitatdi. Har qadamda salqin ichimliklar bilan to'ldirilgan maxsus idishlar qo'yilgan. Chodirlar oldiga qo'yilgan samovarlarda suv hamisha qaynab turadi, ko'k, qora choy, kafe, shakar, quruq sut bilan muttasil ta'minlanadi.

O'zbekistondan Hajga borganlar hamma vaqt va hamma joyda 3 mahal issiq ovqat bilan ta'minlandi. Ovqatlar o'zbekona, sifatli, kaloriyali va xilma-xil, deyarli har ikki kunda osh yedik. Haj paytida mehmonxonalarda va hatto Mino vodiysidagi chodirlarda ham zamonaviy kichik shifoxonalar barpo etildi. Yurtimizdan 50 nafar malakali tibbiyot xodimi va kerakli barcha dori-darmon olib borilgan,



hatto yotib davolanadigan koykalar ham o'rnatilgan. Mazkur kasalxonalarda shifokorlar 24 soat navbatchilik qildi. Zarur hollarda bemorlar Saudiya Arabistoni shifoxonalari olib borilib, jarrohlik amaliyotlari o'tkazib kelindi. Hatto ana shu qimmat operatsiyalar ham bemor uchun bepul bajarildi.

Qo'shni davlatlardan borgan tanish hojlarimiz O'zbekiston tomonidan tashkil etilgan tibbiy xizmatga havas bilan qaradi. Tabiiyki, biz, hojilar, "Haj amallarini qulay va ajoyib tarzda bajarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan Prezidentimiz va mutasaddirlarimizdan Alloh rozi bo'lsin", deya duolar qildik!

Xorijdagi vatandoshlarimizga munosabat o'zgardi

Tan olish kerakki, 2016-yilgacha xalqimiz uzoq yillardan buyon orzu qilgan munosib jamiyat yaratib bera olmadik. Aksincha, bu davrda xalqimizning adolatga bo'lgan ishonchi yo'qoldi, yaxshi yashashga intilish orzusi barbot bo'ldi, asrlar davomida qo'shni xalqlarni ham ta'minlab kelgan zaminimiz endi hatto o'z aholimizni ham boqa olmay qoldi. O'z yurtida tirikchiligini ta'minlay olmagani 2 million vatandoshimiz esa xorijga ish qidirib borib, "gastarbayerlar"ga aylinishga majbur bo'ldi. Yurtimizdagi sifatsiz ta'lim tizimi tufayli ular chet elda "qora ishchi" bo'lishga mahkum edi. Boz ustiga, biz ularni "dangasa, ishyoqmas" deb tahqirlab, sha'nini yerga urishga harakat qilardik.

Shavkat Mirziyoyev mazkur vatandoshlarimizga munosabatni butunlay o'zgartirdi, ularni "O'zbekistonimizning aziz farzandlari, aka-ukalarimiz, jigarlarimiz", deb atab, migrantlarimizga har taraflama yordam ko'rsata boshladi. Xorijga ishlash uchun borayotgan aholimizni kasbga va chet tillariga o'qitish ko'lami kengaytirildi. Ularga Yevropa va

Osiyoning yuqori haq to'lanadigan mamlakatlari ishga borishi uchun ko'maklashilyapti. Vatandoshlarimizga dunyoning istalgan nuqtasidan mamlakatimizdagi davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyati yaratilmoganda. Xorijda murakkab vaziyatga tushib qolgan vatandoshlarimizga huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish ko'lami kengaytirilmoganda. Mehnat migrantlarimiz va ularning oila a'zolari davlatimiz, xalqimizning doimiy g'amxo'rligida bo'lyapti. Farzandlarining o'qishi va oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishida ham yengilliklar berilyapti.

Natijada mehnat migrantlarimiz ham o'zlarini O'zbekistondan aziz farzandlari ekanini his qilmoqda, bundan g'ururlanmoqda.

Xorijdagi vatandoshlarimiz ichida o'sha yoqlarda oliy ta'lim olib, katta muvaffaqiyatlarga erishganlari ham bor edi. Lekin avval ular ham O'zbekiston uchun go'yo begonaday, ular haqida gapirilmasa, matbuotda yozilmasdi. Prezidentimiz bu masalada ham inqilob qildi, ya'ni ularni yurtimizga ishga kelishga da'vat qildi. Tegishli sharoitlar yaratilgach, ular ham yurtimizga qaytib kela boshlashdi. Ayni paytda



xorijdan qaytib kelgan yoshlarimiz Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, yetakchi vazirlik va idoralarda rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda, yangi O'zbekistonda yaratish jarayonida karvonboshilar safida bormoganda.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi — inson qadri ulug'lash sari ulkan qadam

Mamlakatimiz taraqqiyoti keyingi bosqichining vazifalarini belgilab berish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasining pirovard maqsadi 2026-yilga aholi jon boshiga YIMni 1750 dollardan 2800 dollarga yetkazish, 2030-yilga esa bu ko'rsatkichni 4000 AQSH dollaridan oshirish va O'zbekistonda daromad o'rta darajada yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish, ya'ni aholi turmush farovonligini keskin oshirish hisoblanadi.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishi O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi, jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartiradi, aholi farovonligini keskin oshiradi, Uchinchi Rennessansning tashkiliy-huquqiy, ilmiy, ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratadi, xalqimiz qadr-qimmatini yanada ko'taradi.

Bunga hech qanday shubha yo'q, zero, Prezidentimiz aytganidek, "biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdill va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqimiz!"

AGRAR TARMOQ

SUV TANQISLIGI

uning xavf oqibatlarini qanday yumshatish mumkin?

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, global iqlim o'zgarishlari dunyo bo'ylab qurg'oqchilik, atmosfera havosining ifloslanishi kabi qator ekologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat o'z navbatida, barcha mintaqalar, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham muzliklarning keskin qisqarib ketishi, demakki, daryo havzalariga salbiy ta'sir ko'rsatayapti. Mutaxassislar prognozlariga ko'ra, 2050-yilga kelib Sirdaryoda suv hajmi 5 foiz, Amudaryoda esa 15 foizgacha kamayishi mumkin.

Bu masalaning bir jihati. Boshqa tomondan esa, suv hajmi kamayib borishiga nomutanosib ravishda aholi soni o'sishi hamda ishlab chiqarish sanoati rivoji hisobiga suvga talab muttasil oshib boradi. Demak, bundan xulosa qilish mumkin, suv tanqisligi va u keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar ko'lami yildan-yilga kengayib boraveradi.

Xo'sh, bunday vaziyatda nima qilmoq kerak? Sayyoramiz bo'yicha qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekayotgan bir paytda, ushbu muammoga eng samarali yechim —

obihayotni isrof qilishda davom etyapmiz. Yo'q, deysizmi? Unda adashasiz, yon-atrofigingizga, jilla qursa, yaqinlaringizning suvga munosabatiga nazar soling: qanchadan-qancha mehnat, resurs va mablag' evaziga necha bosqichda tozalanib, xonadonimizga olib kelingan toza ichimlik suvini salqinlik uchun hovliva to yer loy bo'lgunicha sepamiz, mashinamizni yuvamiz, tishimizni tozalab bo'lgunicha jumrakni yopmaymiz... To'g'ri, bu bilan muammo tug'al hal bo'lmas, lekin hammamiz har ishimizda, har bir sohada uni tejasaq, tanqislikning oldini olish mumkin. Axir donolarimiz "Toma-toma ko'l bo'lur", deb bejiz aytishmagan.

Gap suvdan samarali foydalanish, uni tejash haqida borar ekan, bu borada eng avvalo, e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tarmoq, bu — qishloq xo'jaligi. Negaki, dunyo, shu jumladan, O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida ishlatilayotgan suv resurslarining eng katta qismi agrar soha hissasiga to'g'ri keladi — 89,7 foiz. 5 foizi esa kommunal xo'jalik, 2 foizi sanoat tarmoqlari, qolgan qismi boshqa tarmoqlar hissasiga to'g'ri keladi.

Shu bois, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejovchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, ariq va kanallarni betonlashtirish, suv agre-



borada amalga oshirilayotgan ishlar sarhisob qilindi.

Tegishli vazirlik va idoralar, jurnalist va blogerlar, suv tejovchi texnologiyalar butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi va pudratchi korxonalar, klaster va fermer xo'jaliklari vakillari ishtirok etgan tadbirida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun kredit olish shartlari, "Suvchilar maktabi" faoliyati haqida atroflicha ma'lumot berildi.

— Bugungi kunga qadar jami 473,5 ming gektar maydonda tomchilatib, 44,7 ming gektarda yomg'irlatib, 18 ming gektarda diskret, 133,9 ming gektar maydonda boshqa suv tejovchi sug'orish tizimlari joriy qilindi, — deydi Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari Rustam Qarshiyev. — Shuningdek, 569 ming gektar ekin maydoni lazer uskunasi yordamida tekislandi. Natijada suv tejilishiga erishilgan yer maydoni hajmi 1,2 million gektarga yoki umumiy maydonga nisbatan 28 foizga yetkazildi. Shu tariqa mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligi yil sayin ortib bormoqda.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, O'zbekiston nisbatan qisqa vaqt ichida sug'orish

suvidan tejamkorlik bilan foydalanish borasida sezilarli natijalarga erishyapti.

Yaqinda Euronews xorijiy ommaviy axborot vositasi yurtimizda suv tejamkorligi bo'yicha amalga oshirilayotgan samarali loyihalar haqida maqola chop etdi.

Maqolada qayd etilishicha, suv tanqisligi kuzatilayotgan yerlarda amalga oshirilgan yirik infratuzilma loyihasi suv isrofini kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida sug'orishni yaxshilash, shuningdek, elektr energiyasi iste'molini kamaytirish va ekinlar hosildorligini oshirish imkonini berdi.

"Janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurslarini boshqarishni yaxshilash" loyihasi doirasida rekonstruksiya qilingan "Bo'ston" kanali suv yo'qotilishini keskin kamaytirishga zamin yaratmoqda.

— Bu yerlarda chor-atrof ko'chma qumtepalardan iborat, — deydi loyiha rahbari Azat Serjanov. — Shuning uchun ham suvning 50 foizi yerga singib ketadi. Bunday katta yo'qotishning oldini olish maqsadida kanalni betonlashtirishga qaror qilindi.

Ma'lumki, Bo'ston kanali qayta qurilishdan oldin tuproq o'zan bo'lgani bois, katta miqdordagi obihayot tuproqqa singib ketardi.

Kanal ikkilamchi kanallar tarmog'i bilan ham bog'langan — ularning umumiy uzunligi 800 kilometrdan ziyodni tashkil etadi. Loyiha doirasida uchta viloyat va 100 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlariga suv yetkazib beradigan kanallarning barchasi rekonstruksiya qilindi. Suv sizishidan yuzaga keladigan yo'qotishlarni bartaraf etish uchun 70 kilometr uzunlikdagi Bo'ston kanali maxsus material — geomembranaga yo'tqizilgan beton bilan qoplandi.

Natijada suv yo'qotishlarni kamaytirish orqali taxminan 300 million metr kub suvni tejash hamda aylanmadan chiqqan 35 ming gektar sug'oriladigan yerni qayta foydalanishga kiritishga erishilishi kutilmoqda.

Ilgari suv dalalarga nasos stansiyalari — yirik davlat va kichik fermer xo'jaliklari yordamida yetkazib berilardi. Loyiha doirasida Bo'ston kanali tubi ikkinchi darajali kanallar va sug'oriladigan dalalardan balandroqqa ko'tarildi. Va endi og'irlik kuchi qonuni tufayli suvning o'zi kerakli joyga oqib boradi. Bu davlat va fermerlarga har yili elektr energiyasidan taxminan 3 million dollar tejash imkonini beradi.

400 dan ziyod fermerning nasoslari, shuningdek, davlat byudjeti hisobidan ishlaydigan 20 ta kichik va 3 ta yirik nasos stansiyasi olib tashlanishi hisobiga issiqxona gazlari, karbonat angidridning atmosferaga chiqishi kamayadi, gaz sarfi esa 36 ming metr kubga qisqaradi.

Tadbirida suvning qadri va qiymati yil sayin oshib borayotgani, obihayotdan foydalanish madaniyatini tezroq o'zgartirib, suvni tejashga to'liq o'tish davr talabi ekaniga alohida e'tibor qaratildi.

— Qishloq xo'jaligi sohasida suvdan samarali foydalanishga erishishda "Suvchilar maktabi" tashkil etilgani ayni muddao bo'ldi, — deydi Suv loyihalari markazi direktori o'rinbosari Mazfarr Hayitboyev. — Mazkur o'quv kursi faoliyati Prezidentimiz tashabbusi bilan Suv xo'jaligi vazirligi, "Toshkent irigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti" milliy tadqiqot universiteti va "Agrobank" ATB hamkor-

ligida yo'lga qo'yilgan. Fermer xo'jaliklari rahbar va suvchilari, suv xo'jaligi xodimlari bugungi kunda sohada qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotiga joriy etilayotgan yangi bilim va ko'nikmalarni egallagan holda, o'z faoliyatini takomillashtirib, suvdan samarali foydalanish orqali yuqori hosildorlikka erishishi o'quv kursining asosiy maqsadi hisoblanadi.

E'tiborli jihati, darslarda ro'yxatdan o'tib, tekin ishtirok etish mumkin. Darslar mahalliy va turkiyalik mutaxassislar tomonidan olib borilmoqda. Shu vaqtga qadar 60 ming fermer, 4 ming maxsus mirob, ming nafar bank xodimi o'qishga jalb qilindi. 84 tuman-da 24,5 mingga yaqin tinglovchi o'qitildi.

— Qishloq xo'jaligida suvdan to'g'ri foydalanish, uni maydonlarga teng taqsimlash va hosildorlikni oshirishda eng yaxshi samara beradigan usul, bu — suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi, — deydi turkiyalik mutaxassis Mavlud Ayden. — Bilasizmi, Turkiyada ham suv muammosi mavjud va aynan shuning uchun ham yurtimizda mana shunday texnikalardan bir necha yillardan beri foydalanib kelinadi. Suv, bu usul allaqachon amaliyotda yaxshi natijalar bilan o'zini oqlagan. Faqat buni to'g'ri yo'lga qo'yish va qanday foydalanishni bilsangiz bas.

Darhaqiqat, suv tejovchi texnologiyalardan foydalanish suv tejamkorligiga erishishning eng samarali yechimlaridan biriga aylandi. Binobarin, tomchilatib sug'orishda suv to'g'ridan-to'g'ri madaniy o'simliklar va ekinlarning ildiz qismiga kichik miqdorda yetkazib beriladi. Suv va boshqa resurslarni (o'g'itlar, mehnat xarajatlari, energiya va quvurlar) sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Shuningdek, bu sug'orish usuli erta hosil yetishtirish, tuproq eroziyasining oldini olish, kasalliklar va begona o'larning tarqalish ehtimolini kamaytirishi bilan ahamiyatidir.

Avazbek XUDOYQULOY,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



tejamkorlik hisoblanadi. Negaki, birinchidan, suv zaxiralarni oshirish, ya'ni tog'lardagi muzliklar hajmini kengaytirishning imkonini yo'q. Borini asrab qolish esa ekologik barqarorlikka bog'liq. Bu, o'z navbatida, ko'p vaqt — uzoq yillar talab etadigan jarayon.

Ikkinchidan, suv tanqisligi muammosi bilan yuzma-yuz turibmiz, lekin hali ham

gatlarni modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Poytaxtimizda Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Kelajak uchun suvni asrang" mavzusidagi tadbirida ham suv tejamkorligiga erishishning ahamiyati o'g'risida o'zaro fikr almashilib, bu

TAJIRIBA

SHOLIDAN IKKI MARTA HOSIL OLISH

O'zbekistonda yangi texnologiya yo'lga qo'yildi



Rixsivoy TELLYAYEV,
Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Jarayonda ushbu mamlakatning sholichilik bo'yicha dunyoda ilg'or hisoblangan tajriba va texnologiyalariga tayanildi. Mazkur texnologiya asosidagi o'simliklarni ko'chat usulida parvarishlash va mexanizatsiya (urug'lar oldindan egat ochmay, tekis yerga ekilaveradi) yordamida ekish tajribasi o'rganilib, yurtimiz sharoitida amalga oshirish vazifasi qo'yildi. Maqsad sholichilikda yilda bir emas, bir necha marta mo' va sifatlari hosil olishdan iborat edi.

Sinov muvaffaqiyatli o'tdi

Jahon bozorida guruch eng talabgiri mahsulotlardan biri. Qadimgi ekin turlaridan bo'lgan sholi hozir ham dunyo aholi-

sining uchdan bir qismi uchun asosiy oziqa manbaidir. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda sayyoramizda 158,8 million gektarga sholi ekilib, 742,5 million tonna hosil olingan. Bu borada Xitoy, Hindiston, Indoneziya yetakchilik qilmoqda.

Sholi o'simligi tropik mintaqadan kelib chiqqaniga qaramay, mo'tadil iqlimli hududlarda keng tarqalgan. Bu ekinni yetishtirishning ham o'ziga xos agrotexnologiyalari mavjud va ularni takomillashtirib borish sohaning dolzarb masalalaridan sanaladi. Sholi yetishtirishda ko'p suv talab qilingani bois, jarayonda ilg'or resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash samaradorlikni oshiradi. Ayni shu maqsadda keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ko'chat usulida sholi yetishtirish va mexanizatsiya yordamida ekish tajribasi Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida olib borilayotgan ana shunday izlanishlarning bir qismi. Janubiy koreyalik mutaxassislar bilan birgalikda o'tkazilgan tajribada ko'chatlarni

mahalliy sharoitga moslashtirish ham bir-muncha vaqt talab etdi. E'tiborsiz, jarayonni boshidan to birinchi hosil olinguniga qadar soha vakillari kuzatib bordi. Yangilikning ilk natijalariga ham ko'pchilik birgalikda guvoh bo'ldi.

Dastlabki jarayonda yurtimizning mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashtirilgan ko'chatni tayyorlash uchun ekinning oziqa negizi, ya'ni tuproq, biogumus va boshqa moddalarni aralashmasi nisbatlari o'rganildi. So'ng 25-30 kunlik sog'lom ko'chatlar belgilangan muddatlarda tayyorlandi. Bunda biz uchun eng qimmatli ko'rsatkich 30 kunlik ko'chatlar ertaki muddatlarda maxsus issiqxonalarda, takroriy ekishga hozirlangan ko'chatlar esa iqlimi mo'tadillashtirilgan xonalarda yetishtirilgani bo'ldi. Ushbu natija dehqon va olimlarimizning bir necha asrlardan buyon orzu qilgan, bir daladan ikki marta sholi hosil olish umidini ro'yog'ga chiqarishga asos bo'ldi, desak mubolag'a emas. Qolaversa, mexanizatsiya yordamida sholi ko'chatlarini ekish asta-sekinlik bilan

rivojlanib borayotgani, hozir ekish agregatlari 30 taga yaqin bo'lib, hatto fermerlarda ham mavjudligi quvonarli hol. Buni yaqin kelajakda sholi ximionlari ham baland bo'lishiga ishora deb baholash mumkin.

Shu tariqa navbat ko'chatlarni yerga joylashtirishga yetdi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, joriy yil aprel oyida Izboskan tumani tajriba dalasida ilk sholi ko'chatlari mexanizatsiya yordamida yerga qadaldi. Ekin ekiladigan kun havo harorati keskin pasayib, sholipoyadagi harorat +10 darajani tashkil etdi. Odatda bunday haroratda sholini qo'lda ekishning imkoniyati bo'lmaydi. Mexanizatsiya usulida esa istalgan havoda ekin ekish mumkin. Biz ularning har ikkisini solishtirib ham ko'rdik. Natijaga ko'ra, nisbatan sovuq haroratda maxsus mexanizm yordamida ekilgan sholi ko'chatlari o'rtacha 15 donadan, bir necha kun kechikib, iliq havoda qo'lda yerga tashlangan ko'chatlar esa 3-5 donadan tuplaganiga guvoh bo'ldik. Ya'ni maxsus 30 kunlik tayyorlangan sholi ko'chatlarini erta muddatda



ekish hamda ko'proq tuplatish imkoniyati yuqoriroq ekan ko'rindi.

Tajriba ko'chatlarining hosildorligi ham ko'pchilikni qiziqitirdi. Olib borilgan dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, hosildorlik ayrim qismlarda 5,5 tonnaga, ayrimlarida 6 tonnaga, ayrimlarida esa 7 tonnaga yetdi. Bu yil bahor mavsumi bir oz sovuqroq kelgani bois, sholi pishishi sal uzaygan bo'lishi, keyingi yillarda bahorda harorat issiq bo'lsa, sholini 7-10 kun erta o'rish imkoniyati yuzaga kelishi mumkin. Ammo umumiy hisobda olinganda, yangi texnologiya asosida ko'chat usulida sholi ekilishi yuqori samaradorlikka ega ekanini ko'rsatdi. Jarayonda qo'l mehnati va ishchi kuchi ham sezilarli tejaldi. Jami xarajattar esa 25-30 foiz kamayishi aniqlandi.

Sholini ko'chat usulida yetishtirishning yana bir afzalligi shundaki, ushbu texnologiyani qo'llash hisobiga sholichilik tizimida ekin joylashtirish tuzilmasi hamda ularning salmog'i keskin o'zgarib, xalqaro talablarga deyarli tenglashmoqda. Avvallari bir dalada asosan sholi, so'ng kuzgi bug'doy asosiy ekin sifatida almashinadigan va yilda ikki marta hosil olingan bo'lsa, endilikda kuzgi bug'doy — takroriy sholi yoki soya — kuzgi bug'doy ekish imkoniyati yaratilmoqda. Demak, yangi tizimda ikki yilda 3 yoki 2-marta sholi, 1-marta don uchun soya, 1-marta to'liq kuzgi bug'doy hosil olinib, ularni almashlab ekish tartibi yana kuzgi bug'doy ekish bilan tugaydi.

Sholining qimmatli xususiyatlaridan yana biri bir dalaga qayta-qayta ekish imkonligida. Misning Nil daryosi bo'yolarida hamda Osiyo qit'asining ko'plab hududlarida biri dalaga sholi ming yildan

ortiq davrlardan buyon muntazam ekilib, yuqori va sifatlari hosil olib kelinmoqda. Demak, mineral, organik o'g'itlar va boshqa kerakli moddalarni berib, doimo sholi yetishtirish mumkin. Ayniqsa, ko'chat usuli va boshqa resurstejamkor nav, texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali bir yilda ikki marta hosil olish ko'proq guruch mahsulotlari yetishtirish imkonini beradi. Albatta, suv resurslaridan o'ta tejamkorlik bilan foydalanishni ham unutmaslik kerak. Buning uchun sholi maydonlarini imkon qadar maxsuslashtirilgan holda joylashtirish hamda ilm-fanga asoslangan boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samara beradi.

Sababi, sholi yetishtirishga yaroqli deb hisoblangan daryo o'zanlari yoki kollektorlardan sizib chiqayotgan sholirangan, oqova suv hamda botqoq yerlar zaxiralardan boshqa ekinlarni yetishtirishda foydalanishning deyarli imkoniyati yo'q. Shuning uchun oldimda hosildor sholi navlarini yaratish bilan birga, har tomchi suvdan samarali foydalanish usullarini joriy etish vazifasi turibdi. Ayniqsa, hozirgi global iqlim o'zgarishlari hamda keskin suv tanqisligi sharoitida faqat ilg'or, innovatsion, resurstejamkor texnologiyalarga tayanishimiz lozim. Ilm-fan yutuqlari esa ularni yanada takomillashtirib borishga yo'l ochadi.

Shunday qilib, mamlakatimizda yilda ikki yoki uch marta sholi hosilini olish tajribasi sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi, deya olamiz. Endi navbat buni hududlarimizda keng joriy qilish, bu orqali dehqon va fermerlarimiz daromadini yanada oshirish, xalqimizning guruch mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Bu yo'ldagi izlanishlarimiz esa davom etadi.



www.yuz.uz

yuz.uz/news

yuz_official

yuz.uz_news

DAXLIDORLIK



66

YANGI MAKTABLAR QURISH, XUSUSIY MAKTABLARNI KO'PAYTIRISH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNI NAZARDA TUTUVCHI MAKTABLARNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT DASTURINI JORIY ETISH ORQALI XALQ TA'LIMI TIZIMIDA QO'SHIMCHA 1,2 MILLION O'QUVCHI O'RNI YARATILADI. 2026-YILGA QADAR O'QUV DASTURLARI VA DARSLIKLAR ILG'OR XORIJIY TAJIRIBA ASOSIDA TO'LA QAYTA ISHLANIB, AMALDA JORIY ETILADI.

YANGI O'ZBEKISTON G'OYASI RO'YOBI

Uchinchi Renessans poydevori kafolatidir



Sadridin TUROBJONOV, Tashkent davlat texnika universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Ijtimoiy davlat g'oyasi, xalqaro hamjamiyat talqin qilganidek, jamiyat hayotini ijtimoiy adolat, shaxs erkinligi va birdamlik tamoyillariga asoslangan holda siyosiy-huquqiy tarzda tashkil etishdan iborat. Xalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Bosh qonunda aynan shu talablarga javob topish mumkin. Ijtimoiy davlatning asosiy va muhim maqsadi hamda funksiyalari bo'lgan ijtimoiy himoya choralarini ko'rish, sharoitli jamiyatni rivojlantirish uchun fuqarolik yaratish, sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish kabi omillar sakrashisiz va inqiloblarisiz, dinamik, barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Buni yurtimizdagi o'zgarishlar va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashdagi sa'y-harakatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Yevropa mamlakatlari ijtimoiy davlatning u yoki bu modeliga asoslangan holda bir necha o'n yilliklar davomida barqaror rivojlanib kelayotgani namunadir.

ti bilan bog'liq. Ijtimoiy adolat tamoyilini ro'yobga chiqarish ko'p jihatdan iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat o'rtasidagi ziddiyatning hal etilishiga daxldor. Albatta, bu bozor munosabatlari sharoitida o'ziga xos murakkab jarayon bo'lishi bilan birga, qonun yo'li bilan hal etilishi mumkin bo'lgan masaladir.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy davlat asoslarini yaratishda qator ishlar qilindi. Jumladan:

birinchidan, inson huquqlari va asosiy erkinliklarining ustuvorligi, tenglik va ijtimoiy adolatning asosiy qadriyat sifatida tan olinishi;

ikkinchidan, birdamlik, davlat doirasida umumiy manfaat, umumbashariy adolatning namoyon bo'lishi va shaxslarning o'zaro munosabatlari adolatli yo'lga qo'yilishi, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini amalga oshirish borasida qilinayotgan ishlar;

uchinchidan, jamiyat a'zolari birdamligini ta'minlash, jamoatchilik ongida odamlarning o'zaro yordamga asoslangan axloqiy munosabatini shakllantirishga asoslangan ma'naviy tarbiyani kuchaytirish;

to'rtinchidan, odamlarning erkin birlashmalari rivojini ta'minlashda davlat ko'magini oshirish;

beshinchidan, davlat ijtimoiy sheriklik institutlarini rivojlantirish, ishchilarning adolatli va munosib ish haqi olish huquqini ta'minlash va ularni ijtimoiy xavflardan

Ijtimoiy davlat mezonlariga mos keladigan ishlar qilindi va u muayyan ma'noda samarasini ham berdi. Xalqimiz dono va sezgir, shuning uchun boshlangan yaxshi va savobli ishlarni faqat muallifi, tashabbuskori mukammal tarzda oxiriga yetkazishi mumkinligini yaxshi tushungan holda saylovda faol ishtirok etdi va katta umid bilan o'zi istagan insonni yetakchi etib sayladi.

Ta'limning yuksalish omillari

O'tgan yillarda barcha sohada islohot o'tkazilib, ko'plab amaliy ishlar bajarildi. Jumladan, ta'lim-tarbiya sohasidagi sa'y-harakat va yangilanishlarni alohida qayd etish o'rini. Zotan, davlatimiz rahbarining sohaga oid farmon va qarorlari, har bir nutqida takror-takror eslatishi ta'limning yuksalishi zaruratidan dalolat beradi.

Ta'lim-tarbiya va ilmiy teran egallash insondan yuksak intellektual salohiyat, aqiliy imkoniyat va g'ayrat-shijoat talab qiladi. Hayot g'oyasi, ta'lim g'oyasi va aql g'oyasi bir-biri bilan mushtarak. Ilm taraqqiyotning kuch-qudrati ekaniga hech kim shubha qilmaydi. Ta'lim g'oyasi insoniyatni rivojlantirishga yetaklaydi. Shu bois, davlatimiz rahbarining Saylovoldi dasturida inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi uchun milliy o'quv dasturini joriy etish, o'qitish sifatini oshirish va raqobat-

xodimlari — bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilar har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Doktoranturaga qabul davlat buyurtmasi va manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov grantlari asosida joriy etiladi.

Uzoqni ko'zlab aytilgan bu fikr va rejalarida ulug' maqsadlar mujassam. Yosh avlodning ilmiy bo'lishi Vatanimizning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining "Mana, safimizga yurtimizdagi, chet eldagi nufuzli oliygohlarda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelmoqda. Men ularning timsolida, avvalo, ertangi kunimizning yangi rahbarlarini, hudud, tarmoq va sohalarning mohir boshqaruvchilarini ko'raman", degan so'zlari chet elda bilim va malakasini oshirib, ezgu umid va maqsad bilan yurtimizga qaytib kelayotgan yigit-qizlarga beqiyos rag'bat berdi.

Toshkent davlat texnika universitetining professor-o'qituvchilari hamda ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan talabalar ham bundan mustasno emas. Chunki OTM chet eldagi nufuzli ilmiy-tashkilotlari bilan o'zaro ta'lim, malaka oshirish va tajriba almashishni yo'lga qo'yg'an. 2018-yildan hozirga qadar qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha bir qancha hamkor universitetlar bilan memorandum va shart-nomalar imzolandi.

Jumladan, universitet informatika va axborot texnologiyalari, texnologik



INSON QADRI UCHUN

DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI

sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishning muhim omili

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etishdan ko'zlangan maqsad aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati va samaradorligini oshirishdan iborat. Uni amaliyotga joriy etishda tizimdagi samarasiz xarajatlar ulushi bosqichma-bosqich qisqartiriladi, tibbiyot muassasalarining moliyaviy mustaqilligi oshadi. Yanada e'tiborli jihati, aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam ko'rsatiladi va bunga xususiy tibbiyot tashkilotlari ham jalb etiladi.



Farrux SHARIPOV, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ijro etuvchi direktori

xonalarda o'sish va rivojlanish bo'yicha skrining tekshiruvlarini o'tkazish yo'lga qo'yilgan. Skrining natijalariga ko'ra, bolada aniqlangan kasalliklarni samarali davolash bo'yicha muolajalar qilinmoqda.

Viloyat aholisi elektron dastur orqali oilaviy shifokorlarga birlashtirilgan, elektron ma'lumotlar bazasi yaratildi. 40 va undan katta yoshdagi aholi skrining tekshiruvlaridan o'tkazilib, xavf omillari aniqlandi. Bemorlarga bu borada zaruriy tavsiya va maslahatlar berilib, nazoratga olindi. Ushbu skrining tekshiruvlari o'tkazilmaganda ko'pchilik salomatligida uchratayotgan xavf omillaridan bexabar bo'lib, kasallik kuchaygan yoki og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin edi.

Shuningdek, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida profilaktika maktablari va sog'lom turmush tarzi xonalari tashkil qilindi. Profilaktika maktablarida surunkali kasalligi bo'lgan bemorlar bilan mashg'ulotlar o'tish, ularni qiziqtirgan savollarga javob berish, kasallik asoratlarini kamaytirishda turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanishning ahamiyati to'g'risida maslahat hamda tavsiyalar berilmoqda.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida xizmatlar sifatini yaxshilashda raqamlashtirish, bemorlarni ro'yxatga olish, elektron tibbiy karta yaratish, shifokor qabuliga onlayn yozilish, elektron retsept yozish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, oilaviy shifokor yo'llanmasi asosida bemorlarga bepul tibbiy yordam ko'rsatish tartibi joriy qilindi. Ushbu tartibga rioya etilmagan hollarda, shuningdek, kafolatlangan paketga kiritilmagan tibbiy xizmatlar pulli asosda ko'rsatiladi.

Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda surunkali kasalliklar bo'yicha dispanser nazoratidagi bemorlarga elektron retsept asosida dorixonadan 11 turdagi dori-darmon bepul berilmoqda. Ambulator davolash jarayonida reimpursatsiya tizimi joriy etilmoqda. Bunda asosan, (yurak ishemik kasalligi, yuqori qon bosimi, qandil diabetning II turi, bronxial astma va o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi) bo'lgan fuqarolar shifokor yozadigan elektron retsept asosida uzoqqa bormasdan dorilarni poliklinikaning o'zida yoki unga yaqin joylashgan dorixonadan olishi mumkin.

Reimpursatsiya inglizcha so'z bo'lib, "xarajatlarni qoplash" ma'nosini anglatadi. Bu aholini dori vositalari bilan ta'minlashda alohida surunkali kasalliklarni davolash uchun shifokor tavsiya etgan dori-darmonlar xarajatini maqsadli kompensatsiya qilishni nazarda tutadi. Davolash standartlariga ko'ra, dori-darmonlarni iste'mol qilish har qanday kasallikni davolashning ajralmas qismi, biroq surunkali kasalliklarni ambulator sharoitida uzluksiz davolash tizimi mukammal emas. Shu bois, aholining zarur dori-darmondan foydalanishi imkoniyatini oshirish maqsadida Reimpursatsiya dasturi amaliyotga joriy etildi. Mazkur dastur bemorga oilaviy shifokor yozgan elektron retsept asosida dorixonalar orqali dori-darmonni bepul olish imkonini beradi. Xarajatlarda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan jamg'arma orqali qoplab beriladi.

Bu kabi ishlar yurtimizning boshqa hududlarida ham bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Bunda birlamchi bo'g'in faoliyatini samarali tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgan. Birlamchi bo'g'inda tibbiy sug'urta tizimining yo'lga qo'yilishi sog'liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag'lar doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushi oshishiga, aholining ijtimoiy zaif toifasini sifati tibbiy xizmat bilan qamrov darajasini oshirishga, aholining tibbiy yordam uchun to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

DAVLATIMIZ RAHBARINING "MANA, SAFIMIZGA YURTIMIZDAGI, CHET ELDAGI NUFUZLI OLYGOHLARDA O'QIGAN, YIRIK KOMPANIYALARDA ISHLAGAN QANCHA-QANCHA SALOHİYATLI YOSHLAR KIRIB KELMOQDA. MEN ULARNING TIMSOLIDA, AVVALO, ERTANGI KUNIMIZNING YANGI RAHBARLARINI, HUDUD, TARMOQ VA SOHALARNING MOHIR BOSHQARUVCHILARINI KO'RAMAN", DEGAN SO'ZLARI CHET ELDA BILIM VA MALAKASINI OSHIRIB, EZGU UMID VA MAQSAD BILAN YURTIMIZGA QAYTIB KELAYOTGAN YIGIT-QIZLARGA BEQIYOS RAG'BAT BERDI.

Zamonaviy ijtimoiy davlatning muhim xususiyati ijtimoiy barqaror rivojlanish bo'lib, bu fuqarolarning farovonligi bilan bog'liq vaziyat barqarorligini anglatadi. Ijtimoiy barqaror iqtisodiyotni shakllantirish zamonaviy iqtisodiy tizimlarning asosiy vazifa va maqsadlaridan biri bo'ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy adolat g'oyasi ijtimoiy rivojlanishning asosiy mazmuniga aylanadi.

Ijtimoiy adolatning zamonaviy tushunchasi jamiyatning barcha a'zolariga teng boshlang'ich imkoniyatlar, ijtimoiy kafolatlar berish, teng mehnat uchun teng haq to'lashni ta'minlash, har kimga nisbatan kamshitishning oldini olish hamda aholining qashshoq, kambag'al qatlami va guruhlarini qo'llab-quvvatlash zarura-

himoya qilish orqali jamiyatda tinchlik va totuvlik uchun sharoit yaratishga yo'naltirilgan siyosatning amaliyotga (hayotga) tatbiq etilishi.

Ijtimoiy davlat tabiatiga mos keladigan ishlar ko'lamini juda keng. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, yangi uy-joylar qurish, aholining ichimlik suv va energiya bilan ta'minlash jarayonida qilinayotgan ishlar ham ular sirasiga kiradi. Keng ko'lami islohotlarning mazmun-mohiyati fuqarolarning ijtimoiy talablarini to'liq qanoatlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, xalq taraqqiyotiga, birligi va birdamligiga, hamfikrligi va hamjihatligiga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, hamma sohada taraqqiyotga eltadi.

bardosh qadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlandi. Hal etilishi zarur bo'lgan yana qator masalalar zikr etildi.

Birinchidan, maktabgacha ta'lim qamrovi 80 foizga yetkazilib, 7 mingdan ziyod yangi maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil etiladi. 2024-yil yakuniga qadar 6 yoshli bolalar maktabgacha tayyorlov tizimi bilan to'liq qamrab olinadi. Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining o'ylik maoshi bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — yetti yoshgacha bo'lgan birorta ham bola maktabga chiqquniga qadar e'tiborsiz va bilimsiz qolmasligi kerak.

Ikkinchidan, yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko'paytirish va ta'lim sifati oshirishni nazarda tutuvchi Maktablarni rivojlantirish davlat dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratiladi. 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklar ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ishlanib, amalda joriy etiladi.

Uchinchidan, oliy ta'lim tizimida qamrovni 50 foizga yetkazish va ta'lim sifati oshirish davlat e'tibori markazida bo'ladi. Talabalarining yashash sharoitini yaxshilash maqsadida 100 ming o'rinni talabalar turar joylari barpo etiladi. Davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan bosqichma-bosqich mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyoti yo'lga qo'yiladi va ular uchun ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizga tushiriladi. 2026-yilgacha xususiy oliy ta'lim tashkilotlari soni kamida 50 taga yetkazilib, ularda ta'lim olayotgan talabalarga ham 7 yillik ta'lim krediti olish imkoniyati yaratiladi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali yoshlarni nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborish ko'lamini 2 barobar oshiriladi.

To'rtinchidan, ta'limning barcha bosqichidagi muassasalar va ularning

jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda boshqarish, biotexnologiya, avtomobilsozlik va traktorsozlik, mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish, metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti, energetika sohalari bo'yicha Belarus milliy texnika universiteti bilan qo'shma ta'lim dasturini yo'lga qo'yg'an edi. Yaqinda birinchi marotaba dual ta'lim olgan bakalavriyat bosqichi talabalariga diplom tantanalari topshirildi.

Har yili talabalarimizga dars o'tish uchun xorijiy hamkor universitetlardan professor-o'qituvchilar jalb qilinadi. Bizning professor-o'qituvchilarning ham chet eldagi OTMlarga borib malaka oshirib keladi. 2022/2023-o'quv yili davomida Toshkent davlat texnika universitetining 180 nafardan ortiq professor-o'qituvchisi, shuningdek, 60 nafarga yaqin talaba, magistrant, tayanch doktorant va doktoranti xorijiy mamlakatlarga yuborilgan. AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Hindiston, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Belgiya, Turkiya, Germaniya, Rossiya, BAA shular jumlasidandir.

Bugun mamlakatimizda katta o'zgarish va yangiliklar bo'layotganini dunyo xalqlari ko'rib, bilib turibdi. Ular O'zbekistonda yangi g'oyaga va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi", degan so'zlari yoshlarni ruhlantirib, yangi orzu-maqsad, yangi niyat, yangi davr maydoni hamda sarhadlari sari chorlayveradi. Qaysi ishda tashabbus va intilish bo'lsa, o'sha manzilda yuksalish, natija bo'y ko'rsatadi.



KULGI OLAMIDA

Avaz OXUN:

Qiziqchilik — jiddiy san'at

“BACHKANA KULGIDAN HAM BACHKANA NARSA YO'Q”, DEGAN EKAN FAYLASUFLARIMIZ. BACHKANALIKNI SAHNADA HAM, HAYOTDA HAM YOMON KO'RAMAN. GAPNING LO'NDASINI AYTGANDA, BIZNING DAVRADA QACHON BACHKANALIK QILINADI? AQLI, KUCHI, FAROSATI YETMASA, SOHANI TUSHUNMASAGINA SHUNDAY BO'LISHI MUMKIN”.



Hech kim xafa bo'lmagan

Ilmiy asoslangan ma'lumotlarga ko'ra, kuniga o'n daqiqa kulish umrni bir yilga uzaytirishi mumkin. Kulish jarayonida yuzimizdagi saksandan ziyod mushak qarish jarayoniga faol qarshilik qilishini, kuniga 15 daqiqa kulish bir oyda 2 kilo vazn tashlashga ko'maklashishi mumkinligini bilasizmi? Kulgi terapiyasi organizmning immun tizimini mustahkamlashi haqidagi fikrni esa Abu Ali ibn Sinoning "Bemor kulayotgan lahzalarida yuz foiz sog'lom odam holatida bo'ladi!" degan jumlasini bilan quvvatlash mumkin.

Bugun muayyan ma'noda kulgi terapiyasiga xizmat qilayotgan, bu boradagi mehnatlari "Shuhrat" medaliga munosib ko'rilgan, oddiy va jiddiy inson, badiiy so'z ustasi Avaz Azizxonov bachkanalikdan xoli hazillaridagi samimiyati ila yurtdoshlarimiz qalbiga kirib bordi. Albatta, bu osonlikcha bo'lmadi. Buning uchun 11 yil kerak bo'ldi. "Mirzo teatri"dan boshlangan kulgi ulashishdek mashhaqqatli faoliyat bugun yakkaxonlikda davom etmoqda.

7 yoshdan 70 yoshgacha muxlislariga sevimli so'z ustasi, rahmatli Hojiboy Tojiboyevni eslatuvchi Avaz OXUN (Azizxonov) bilan shubhatimiz qiziqchilik, so'z san'atining nozik jihatlari, umuman, qiziqchilikning jamiyatdagi roli xususida kechdi.

Askiyachilar nima uchun o'zi gapirib, o'zi kuladi? Yoxud askiya ham milliy brendimiz

O'quvchilik yillaridanoq tadbirlar sabab maktab sahnasida toblangan, hatto kuldirisga moyil do'stlari bilan pulli dasturini namoyish qilgan Avaz Oxun aslida so'z san'atiga qiziqqani holda o'zi istamaygina Toshkent davlat san'at institutining qo'g'irchoq teatri rejissyorligi fakultetiga hujjat topshirgan. Chunki bu yo'nalishga talabgorlar kamroq, so'z ustalarini yetishtirib beradigan alohida yo'nalish yoki kurslar yo'q edi, hozir ham yo'q. So'z ustaligi aktyorlik, rejissyorlik mahoratiga qo'shib o'rgatildi.

— Prezidentimiz qiziqchilik, askiya san'atiga alohida e'tibor qaratganidan biz, so'z ustalari juda xursand bo'ldik, — deydi qahramonimiz. — So'z ustalari e'tirof etilyapti. Davlat mukofotlari berilyapti. Ayniqsa, bu san'at turlarini rivojlantirish bo'yicha alohida qaror imzolangan tarixiy voqea bo'ldi. Ustoz qiziqchi, askiyachilar maktabi yaratilisa, so'z ustasi bo'laman degan yoshlar har maqomga yo'rg'alaymiz.

Ha, nasib qilsa, kelasi o'quv yilidan boshlab qaror asosida Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kollejida, Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabida "askiya va qiziqchilik san'ati" yo'nalishi ochiladi. Tajribali o'qituvchilar maxsus o'quv dasturlari asosida dars beradi. Bu esa kelajakda professional so'z ustalari, hozirjavob askiyachilarning

munosib izdoshlari yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Zero, qiziqchilik, ayniqsa, askiya janrida ijod qilish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

Qiziqchi bo'larib Avaz Oxun ham askiya san'atiga 30 foiz tushunar ekan. Bunga uning o'zi bunday izoh berdi:

— Bu — zakiylik, aql san'ati. Uchdan bir qismini tushunishimdan bilaveringki, juda murakkab san'at. Yana bir gap. Askiyachilar nima uchun o'zi gapirib o'zi kulishiga ko'pchilik tushunmaydi. Chunki bu san'atda ijodkor o'sha joyning o'zida ijod qiladi. Gap favqulodda, hozirjavoblik bilan topilgan, birinchi marta eshitib turgani uchun askiyachining o'zi ham kuladi. Aslida, xayolimga kelgan dastlabki qiziq fikrga men ham kulaman. Tomoshabinga esa qancha kulgili bo'lmasin, jiddiy holda ayta olaman, chunki menga yangilik emas-da bu. Askiyada mana shu imkoniyat yo'q, askiyachi hozirjavob, hushyor bo'lishi shart. Shu ma'noda ham askiya noyob san'atdir. Jaydari aytganda, bu ham bizning milliy brendimiz. O'zingiz o'ylang, dunyo bo'ylab qiziqchilar, qo'shiqchilar, teatr, kino aktyorlari bor. Lekin askiyachilar dunyoda yo'q. Balki ayrim qo'shnilarimizda bordir, lekin men eshitmaganman. Mana, askiya bilan g'ururlanadigan joyimiz.

Biroq aytish kerak, keyingi paytlarda bu san'atning darajasi faqat erkaklar davrasiga xos bo'lib boryapti. Aslida, askiyani kengroq ijro qilsa ham bo'ladi, chiroyli askiyalar ko'p. Ustozlarimiz Muhiddin Darvesh, Rustam Hamroqulovni ommaviy eshitishgan-ku? Yuqoridagi qarordan maqsad ham shu — milliy askiyachiligimizni saqlab qolish. Sof askiya sohiblari maktabini yaratish.

Eng katta bozorimiz — hayot

Shoir aytganidek, mashhurlarga oson emas. Ko'plab odamlar nazdida ular boshqacha insonlar. Mashhurlar avtobus, metroga chiqmasligi, kiyim olish uchun bozorga bormasligi, oziq-ovqatni oddiy do'konlardan xarid qilmasligi, qisqa aytganda, yulduzmi — osmondan bo'lishi lozim. Tabiiyki, Avaz Oxuna nisbatan ham shunday qarashlar mavjud. Ammo u boshqa narsadan kuyinadi:

— Ko'pincha qiziqchilar "bu qiziqchi ekan", deb hazillashadigan, bachkanalik qiladigan odamlar bo'ladi. Go'yo biz ularning har qanday gapini ko'tarishimiz, o'ziga yarasha bachkanalik qilib berishimiz kerak. Aslida, qiziqchilar jiddiy odamlar bo'ladi, chunki qiziqchilik jiddiy kasb. Ustozlarimiz bizga ramziy ma'noda "Sahnaga chiqayotganda "kostyum"ingni yechib, ishing bitganidan keyin yana kiyib ketaver", deyishgan. Buni izohlashga hojat bo'lmas kerak. Sahnadan tashqarida biz ham oddiy insonmiz. Qolaversa,

“KO'CHA-KO'YDA HAM KO'P E'TIBOR BERAMAN, NOMLARNING O'ZIDA HAM 70-80 FOIZ G'ARBGA TAQLID QILYAPMIZ. GO'YOKI SHUNDAY NOM QO'YILSA, TO'YXONAMI YOKI QANDAYDIR DO'KONMI, ZAMONAVIY BO'LIB QOLADI. O'ZBEKCHA NOMLAR BILAN ATASAK BO'LADI-KU? HATTO MILLIY MAHSULOTLARIMIZDA MILLIY NOMIMIZ YO'Q. MILLIY NOM QO'YSAK, MAHSULOT NARXI TUSHIB KETADIMI YOKI REYTINGI PASTLAYDIMI, TUSHUNMAYMAN.



qiziqchilikning alohida kitobi, qonun-qoidasi yo'q, hayotning o'zi tarbiyalaydi. Shu o'rinda ustozim Hojiboy Tojiboyevning qiziqchilik qilish uchun kitob titish shart emas, hayotni sinchkov kuzatish kifoya degan gapi esimga tushdi. Buning tasdiqini ko'p ko'rganmiz. Lekin kitob ham o'qish kerak, chunki odam kitob o'qigani sari badiiy saviyasi, so'z boyligi oshadi. To'g'ri, hajviyani hayotdan olasiz, ko'proq hayotni kuzatasiz, o'sha zamon bilan hamnafas bo'lasiz. Biroq qiziqchilik san'atida, qo'shiqchilikda, teatr san'ati, kino, umuman, san'atning har qanday turida eng muhimi — dramaturgiya. Bizda ijrochilar ko'p, lekin dramaturgiya yo'q. Chunki dramaturgiya mashhaqqatli yo'nalish. Yaxshi asar bo'lmas, askiya, qiziqchini topish muammo emas. Shunday ekan, biz gapiradigan gapimizni qayerdan olamiz? Albatta, hayotdan olamiz va tabiiy chiqadi. Hayotdan olish uchun esa

qo'yyapti. Bu boradagi muammolarning har birini kulgi bilan nishonga olish va muayyan ma'noda yo'q qilishga erishish avval ham, hozir ham qiziqchilikning asosiy maqsadi.

“Bachkana kulgidan ham bachkana narsa yo'q”

Bugun odamlarni kuldiram bo'lgani, deb bachkanalik ko'chasiga kirayotganlar tobora ko'payib borayotgani, afsuski, haqiqat. El o'rtasida kishining hurmati yo'qolishiga olib keluvchi bachkanalikka mutafakkirlarimiz keskin qoralaydi. Xususan, Nosir Xusrav "Qirg' yoshda ham aql-u odob bo'lmasa, Bo'ladi undayni odam demasa", deydi. Alisher Navoiy esa bachkanalik odamni behuda o'vorai sargardonlikka muhtalo qilishini uqitirib, "Havas bo'lisa qarig'a navjuvonlik, Hijolat zohir aylar sargardonlik", deb yozadi. Bugun yoshi bir joyga yetsa-da, bachkanalikdan uyalmay, daromad ilinjida bu illatni o'ziga ep ko'rayotganlarning konsertlarida ham o'rindiqdar to'layotgani hayron qoldiradi odamni.

Xo'sh, bu borada Avaz Oxun nima deydi? "Bachkana kulgidan ham bachkana narsa yo'q", degan ekan faylasuflarimiz. Bachkanalikka sahnada ham, hayotda ham yomon ko'raman. Gapning lo'ndasini aytganda, bizning davrda qachon bachkanalik qilinadi? Aqli, kuchi, farosati yetmasa, sohani tushunmasagina shunday bo'lishi mumkin".

Ta'lim zamonaviy, tarbiya milliy bo'lishi kerak

— Keyingi paytda, qo'pol qilib aytganda, milliy g'urur yo'qolib boryapti. Biz ko'r-korona Yevropaga taqlid qilaymiz. Shunaqa odamlarni uchratamanki, O'zbekiston telekanallarini umuman ko'rmayman, deydi. O'zimizning telekanallarini ko'rmaslikni obro' hisoblaydi. Qanaqadir martaba beradi bu unga. Ochiqroq aytadigan bo'lsak, shu bilan zamonaviy o'zicha. To'g'ri, nimanin iste'mol qilish har kimmning o'ziga havola, lekin qadriyatlarimizni namoyon qilayotgan, o'zbekligimizdan faxrlanib tomosha qilishga arziydigan kanallarimiz ham bor-ku.

Ko'cha-ko'yda ham ko'p e'tibor beraman, nomlarning o'zida ham 70-80 foiz G'arbga taqlid qilaymiz. Go'yoki shunday nom qo'yilsa, to'yxonami yoki qandaydir do'konmi, zamonaviy bo'lib qoladi. O'zbekcha

sinchkovroq bo'lish kerak. Ustoz aytganidek, hayot — eng katta bozorimiz, sara mahsulotlarimiz o'sha yerda.

Juda ko'p mavzularim boshimdan o'tgan voqe'liklardan kelib chiqqan. Samolyot, to'ylar, chet el bilan bog'liq latifalarim shular jumlasidan. O'sha vaziyatlarga o'zim tushganman, og'ir holatda qolganman. Lekin tomoshabin maza qilib kuladi. Aslida, ularning zamirida katta fojia, dard, kuchli satira yotadi. Hojiboy akada ham shunaqa mavzular ko'p, ba'zi tomoshabinlar dumalab qolgudek kuladi. Qiziqchining vazifasi ham shu. Satira, hazil bilan jamiyatdagi muammolarni odamlarning o'ziga ko'rsatib, ularni ham kuldinib, ham yig'latib tarbiyalash. Bugun o'ta tezlikda rivojlanish bilan birga yangi-yangi muammolarga ham o'ralashib boryapmiz. Ma'naviy qashshoqlik, ilmsizlik bizni ko'p masalalarga yengil qarashga o'rgatib

nomlar bilan atasak bo'ladi-ku? Hatto milliy mahsulotlarimizda milliy nomimiz yo'q. Milliy nom qo'ysak, mahsulot narxi tushib ketadimi yoki reytingi pastlaydimi, tushunmayman.

Keyin shunday odamlar borki, ruscha o'zbekcha aralashtirib gapiradi. Eng alam qiladigan san'atkorlarimiz orasida bu toifadagilar borligi. O'zbekcha ashula aytadi, o'zbekning to'yiga borib pul topadi, o'zbekning nonini yeb turib, intervyuga chaqirsa kelmaydi. Nega? Ruscha gapiradi, o'zbekcha gapira olmayman, deydi. Ana sizga fojia. O'zimiz ham ruscha aralash gapiramiz, masalan "zato", "tochniy", "koroche" kabi so'zlar tilimizga mahkam yopishib qolgan. Hatto sahnada ham shunday aytak qiziqroq chiqadiganga o'xshaydi ba'zida. Ko'plab qiziqchi guruhlari G'arb madaniyatini, "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qilyapti. Lekin chinakam taqlid qilish uchun gap faqat nomda emas-da, milliy xarakter bo'lishi kerak. Masalan, yevropacha gaplashish, yevropacha salomlashish, yevropacha yashash. Shuning uchun men bu mavzuga juda ko'p to'xtalman. Bu haqida soatlab gaplashish kerak aslida. Qisqacha aytganda, har qanday holatda, har qaysi jabhada milliylik — milliy g'urur, milliy tutum insonning o'zida bo'lishi kerak. Bu har tomonlama namoyon bo'ladi. Nima, o'zbekcha yashasak qolmoq bo'lib qolamizmi? Mayli, bolalarimizga ajnabiy tillarini puxta o'rgataylik, bu kerak. Lekin takror aytaman — ta'lim zamonaviy, tarbiya milliy bo'lishi shart. Bolalarimizning zamonaviy insonlar bo'lishini xohlagan holda, ularni ommaviy madaniyatga o'rgatib qo'yishimiz kerak emas. Bilimli, aqli bo'lsin, dunyoni tanisin, tilni, kompyuterni bilsin, lekin o'zbek bo'lsin, milliy g'ururini yo'qotib qo'ymasini!

Shayxga yoqqan repertuar

Ajoyib xalqimiz-da. Talaygina "yozilmagan qoidalar"imiz, o'zimizga xos irim-sirimlarimiz bor. Yangi tug'ilgan farzandimizni kattalariga oyoq tomondan ko'rsatishimiz kerak, qarzimiz bo'lisa-da, ertalab bировga pul bermasligimiz kerak, falon kuni kir yumaslik, falon kuni sovchilikka bormaslik, yana qaysidir kunda uydan uyga ko'chmaslik, eh-hey, sanasang adog'i yo'q. Ba'zan aqlimiz g'olib kelib turganda ham ko'ngilga qolmoq, irim-sirimlarga o'ralashib qolamiz. Islomda esa bularning bari bid'at ekanini aytiladi. Avaz Oxunning irim-sirimlar bilan bog'liq repertuari shu jihati xalqqa yetkazishga xizmat qiladi. Qora mushuk, ichuvchilar, to'yalarimizda kuzatiladigan holatlar haqidagi latifalari ayrimlarimizning haqiqatan sodda, ishonuvchanligimizni oynadek ko'rsatadi o'zimizga. Mana shu chiqishi haqida so'raganimizda u bunday javob berdi:

— Bu repertuarim o'zim ham juda yaxshi ko'raman. Qaysi ma'nodaki, bunda ham dunyoviylik, ham diniylik aks etgan. Aslida, diniy mavzuda repertuar tayyorlashdan cho'chib turaman. Nega? Chunki yaxshi bilmayman. To'g'ri, ibodatni qilamiz. Allohdan yuzimiz yorug' bo'lishni so'rab, o'ziga tavakkal qilib sahnaga chiqamiz. Qiziqchilikning o'zi haqida ham diniy ulamolardan ijobiy fikr eshitgach, ko'nglim xotirjam bo'lgan. Ya'ni odamlarni kuldiris kerak, faqat yaxshilikka xizmat qilisa, degan javobini olganman. Bid'atlar haqida ham ulardan obdon so'rab olib gapiraman. Xayriyatki, juda ko'p diniy ulamolardan, imomlardan, islomni, diniy yaxshi tanigan insonlardan rahmat eshitdim. "Biz masjidda mingta odamga gapirsak, Avaz Oxun 4 mingta odamga yetkazib berdi", deganlarini eslasam, ko'nglim yorishadi. Eng quvonarlisi, bir to'yda bir shayx aroq ichish bilan bog'liq latifam uchun meni bag'riga bosib minnatdorlik bildirgan. Muxlislar ham iliq qabul qilgan. Loqaq bir kishi shu irim-sirimlarning bid'at ekanini bilib, o'ziga xulosa olib ketgan bo'lsa, yaxshilikka xizmat qildim, deb o'ylayman. Bundan tashqari, xalqning ichiga kirganimda shu repertuarim yaxshi obro' keltirganini sezdim, aksariyat yurtdoshlarimiz "xo'p gapiribsiz shuni, yaxshilikka bo'пти", deyishdi. Shu ma'noda, yana aytilmagan irim-sirimlarimizdan xalqqa yaqin, ya'ni kundalik hayotda ko'p qo'llanadiganlari haqida gapirib, shu mavzuga takror qaytsak bo'laveradi. Yaxshi mavzuga qayta-qayta murojaat qilsangiz bo'ladi, faqat yangilik bilan.

Suhbatdoshimizdan san'atkorlar boshqa kasb egalari haqida qilganida, ular tomonidan qandaydir e'tiroz bo'lgan-bo'lmagan haqida so'radik.

— To'g'ri, ko'proq san'atkorlarga hazil qilganmiz, lekin shu paytgacha hech kim xafa bo'lmadi va buyog'iga ham bo'lmasa kerak. Chunki hazil qilayotganda shaxsiyatiga tegmaslik, insonning juz'iy kamchiliklari ustidan kulmaslik zarur. Kim bo'lishidan qat'i nazar, unga nisbatan hazil samimiy bo'lishi kerak. Menimcha, samimiy hazil hech kimmning g'ashiga tegmaydi. Masalan, Hosila Rahimova, Farhod Saidov, Ozodbek Nazarbekov, Alisher Fayz, Bahrom Nazarov va yana ko'p san'atkorlarga, boshqa soha kishilariga hazil qilganmiz. Hech kim xafa bo'lmadi. Hammasi to'g'ri tushungan, xursand bo'lib, minnatdorlik bildirgan. Chunki hech qachon hech kimmning shaxsiyati ustidan kulgaganmiz, bundan keyin ham kulmaymiz.

Qiziqchilikka o'rgatib bo'ladimi?

Yuqorida ayganimizdek, Avaz Oxun aynan qiziqchilikka o'qimadi. Xalqning sevimli so'z ustasi bo'lishida uning bolalikdan so'z san'atiga qiziqishi g'olib keldi. To'g'ri, institutda ham nimalarnidir o'rgandi, lekin asosan, amaliyotda toblandi. Mirzabek Xolmedov, Hojiboy Tojiboyev, Obid Asomov, Zokir Ochidiyev, Ortiq Sultonovning har biridan o'ziga keragini oldi. Uning aytishicha, insonning qiziqchilikka moyilligi bolaligidan aytar so'zi-yu ko'zi, xatti-harakatidan ma'lum bo'lib qoladi. Qiziqish bo'lisa, har qanday kasbni o'rgatsa bo'ladi. Eng muhimi, kasbga muhabbat. Kishida 1 foiz iste'dod bo'lisa ham, 99 foiz mehnat bilan uni yuzaga chiqarish mumkin. Lekin qiziqchinam bo'lib tug'ilgan odamning shakllanishi osonroq bo'ladi.

Ayni paytda Avaz Oxunni yo'lidan ketayotgan umidli shogirdlari bor, albatta. Ular orasida Diyorjon Faxriyev va Nodir qiziqdan qahramonimizning ko'ngli to'g'.

— Bular o'zida bor yigitlar, imkon qadar harakat qilyapti. Nasib qilsa, ishonchimizni oqlaydi, — deya faxrlandi so'z ustasi.

Konsertlarim bolamday aziz

Avaz Oxunning konsertlariga muxlislar ko'pincha oilaviy — ota-onalar, hatto yosh bolalar bilan keladi. Uning yagona maqsadi ham oilaviy tomosha qilish, eshitish mumkin bo'lgan qiziqchilik maktabini yaratish.

Darhaqiqat, bugun oilaviy o'rish mumkin bo'lgan kulgi dasturlar barmoq bilan sanarli. Seriallarni-ku, gapirmasa ham bo'ladi. 18+ belgisingiz aksariyat ota-onalarga hech qanday ahamiyati yo'q. Mana shu muammolarni bari Avaz Oxunni mavzu tanlashda g'oyat hushyorlikka undaydi. Bugun qaysi masala dolzarb? U xalqqa qanchalik qiziq? Buning uchun har kuni qiyasi mavzuni aytam, xalq tushunadi, yuragiga yetib boradi, degan savol bilan yashash kerak. E'tibor bergan bo'lsangiz, qahramonimiz repertuarlarida 5-6 tagacha mavzu bo'ladi, ularning bari dolzarb, yangi. Har bir mavzu 15-20 minut, yarim soatgacha davom etishi mumkin. Aytmoqchi bo'layotgan gapini yetkazishdagi o'ziga xos uslub, ijro mahorati qalblarga to'g'ri kirib boradi.

— Nasib qilsa, bu yil o'ninchi marta konsert namoyish qilamiz. Konsertlarimni bir-biridan ajrata olmayman, chunki har bittasi farzandimizday aziz bo'lib qolaveradi. Axir bolalarimizni bir-biridan ajratmaymiz-ku? Bu barmog'imni tishlasam, unisi og'riydi, deyishadi. Haqiqatan, har birining o'z o'rni, bahosi bor. Har bir konsertda xalqning esida qoladigan 1-2 ta mavzu bo'ladi, shu mavzuga maza qildik, deb yuradi muxlislar. Dolzarb mavzularga ishora qilib, shuni nihoyatda to'g'ri o'ylabsiz, deb qo'yadiganlari ham ko'p bo'ladi. Yuqorida aytdanidek, irim-sirim, qiz uzatish, to'y masalasi, bo'lar-bo'lmas reklamlar qilinayotgani haqida gapirganimiz ko'pchilikka ma'qul bo'layotgan ekan, har bitta konsertning o'ziga yarasha zo'r nuqtasi bo'ladi, deb ayta olaman.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

